



SOLIQ MA'MURCHILIGI SOHASIDA ELEKTRON HUJJATDAN FOYDALANISH ORQALI SOLIQ BAZASINI KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI

Abdullaev Shahbozbek Nodirshoh o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009000991985151

shahbozbek.abdullaev@soliq.uz

Annotatsiya. Respublikamizda soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda yashirin aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi adolatli soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, tadbirkorlik subyektlari, byudjet siyosati, inqiroz, byudjet, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

НАПРАВЛЕНИЯ РАСШИРЕНИЯ НАЛОГОВОЙ БАЗЫ ЗА СЧЕТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ДОКУМЕНТОВ В СФЕРЕ НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ

Абдуллаев Шахбозбек Нодиршах угли

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В целях дальнейшего совершенствования налоговой системы в нашей республике, сокращения скрытого оборота в экономике и реализации основных направлений концепции совершенствования справедливой налоговой политики Республики Узбекистан, расширение налоговой базы за счет внедрения цифровых технологий в экономику. изучено налоговое администрирование и некоторые важные реформы в налоговой системе, разработан зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: рейтинг устойчивости, субъекты хозяйствования, бюджетная политика, кризис, бюджет, налоговое администрирование, субъекты предпринимательства, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налог, ставка налога, преференции.

DIRECTIONS FOR EXPANDING THE TAX BASE THROUGH THE USE OF ELECTRONIC DOCUMENTS IN THE FIELD OF TAX ADMINISTRATION

Abdullaev Shahbozbek Nodirshah ugli

Tashkent State University of Economics

Abstract. *In order to further improve the tax system in our republic, to reduce hidden circulation in the economy, and to implement the main directions of the concept of improving the fair tax policy of the Republic of Uzbekistan, expanding the tax base by introducing digital technologies to the tax administration and some important reforms in the tax system were studied, foreign experience, scientific-practical conclusions, and proposals for its application in our country have been developed.*

Keywords: *stability rating, business entities, budget policy, crisis, budget, tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, tax, tax rate, preferences.*

Kirish.

O'zbekiston ham rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib Hukumat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni elektron interaktiv xizmatlar asosida tashkillashtirishga o'tmoqda. Soliq tizimida ham soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni raqamlashtirish orqali takomillashtirmoqdalar. Raqamli texnologiyani o'zlashtirish muvaffaqiyatli va samarali soliq islohotlarini amalga oshirishga, raqamli iqtisodiyotning bexato soliqqa tortilishini ta'minlashga va rioya qilish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga hamda inson omilini qisqartirishga imkon beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Kukarina (2004) o'z tadqiqotlarida, birinchi navbatda, tadqiqotning yangi predmeti – menejment sohasiga faol joriy etilayotgan va qonunchilikni birlashtirishni talab qiluvchi elektron hujjat ekanligini ta'kidlagan. Bu sohadagi birinchi qonunlar faqat XX asrning 90-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan. Shuning uchun ilmiy ishlarda elektron hujjat hodisasini tushunish asta-sekin undan foydalanish tajribasini to'plashdan boshlanishini qayd etgan. Ularda mavjud ta'riflarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, "elektron hujjat" va "elektron imzo" yangi tushunchalarini shakllantirish jarayoni hujjat aylanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan.

Chervatyuk (2020) elektron hujjat aylanishining zamonaviy jarayonlardagi talablarini tahlil qilgan va quyidagilarni amalga oshirgan:

1) zamonaviy elektron arxivlar va elektron hujjat aylanish tizimlarini, mavjud mahsulot ma'lumotlarini boshqarish tizimlari imkoniyatlarini, elektron hujjatlardan foydalanish huquqlarini differensiallashtirish tamoyillarini qiyosiy tahlil qilgan;

2) nodavlat notijorat tashkilotlarining texnik hujjatlari elektron arxivi va elektron hujjat aylanishi uchun ma'lumotlar ombori modelini ishlab chiqqan;

3) axborotni himoya qilishning zarur darajasiga ega bo'lgan NNTlar o'rtasida elektron texnik hujjatlar almashinuvi modeli va algoritmlarini ishlab chiqqan;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari texnik hujjatlari elektron arxividan ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqqan, bu esa texnik hujjatlarning yangi nusxalarining asl nusxalarini yaratish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bergan;

5) texnik hujjatlar elektron arxivi va nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron hujjat aylanishi ma'lumotlar ombori axborot tizimi (AT) uchun tizimli-funksional echimni ishlab chiqqan;

6) laboratoriyada AT algoritmlarining ishlashi va samaradorligini tekshirgan va elektron hujjat aylanish tizimida arxivlash zarur jarayon ekanligini ta'kidlab o'tgan (Кукарина, 2004).

Iqtisodchi olim Bisultanov (2019) o'zining ilmiy ishida soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqqan. Olim soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun soliq mu'murchiligi kategoriyalarini kompleks tahlil qilgan va yangi kategoriyalar joriy qilingan; soliq organlari va soliq to'lovchilarning munosabatlarini tizimlashtirish orqali soliq ma'murchiligining instrumentlari va usullarini o'rgangan; uchinchidan Rossiya hududlaridagi zamonaviy soliq ma'murchiligining holatini o'rgangan va sifat darajasini baholagan; to'rtinchidan, soliq ma'murchiligini rivojlantirishning raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anviy va innovatsion usullardan foydalangan holda yo'nalishlarini aniqlagan hamda tavsiyalar ishlab chiqqan; beshinchidan, raqamli soliq tizimi hisobi va soliq ma'murchiligining yagona modelini ishlab chiqqan, hamda foydalanish jarayonidagi samaradorligini aniqlagan.

Kortikov (2013) ta'kidlashicha axborot resurslarini integratsiyalash usullarini ishlab chiqish axborot tizimlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. So'nggi yillarda ma'lumotlar manbalarining yuqori darajada turli xilligi tufayli u ayniqsa katta e'tiborni jalb qila boshladi. Har xil turdagi elektron hujjatlarning mavjudligi elektron hujjat aylanish tizimini juda dolzarb axborot tizimiga aylantirdi. Olim mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan va elektron hujjat aylanish tizimlarining tasnifini tuzgan. Elektron hujjat aylanishi tizimining ishlashi uchun asosiy tamoyillar va talablarni aniqlagan. Ilmiy ish doirasida sohasining strukturaviy modelini yaratgan. Strukturaviy modelning birgalikda ishlashini miqdoriy baholashni ta'minlaydigan raqamli usullar va tegishli algoritmlarni ishlab chiqqan.

Jarkov (2014) ta'kidlashicha, elektron hujjat aylanish tizimi axborot texnologiyalari asosida tashkilotning ichki va tashqi hujjatlar aylanishini tartibga soladi va tartibli boshqaradi.

Shreyter (2015) elektron hujjat aylanishi sohasini kengroq o'rgangan. Korxonalarda qog'oz hujjat aylanishi jarayonlarini tahlil qilib bu jarayonlardagi bir qator kamchiliklarni keltirib o'tgan. Jumladan, qog'oz hujjatlarning saqlash jarayonlari va ular uchun katta miqdorda joy hamda tegishli sharoitlar yaratilishi kerakligini katta xarajat sifatida e'tirof etgan. Ikkinchi navbatda, qog'oz hujjatlarni qayta ishlash yoki tahlillar o'tkazish jarayonining qiyinligi va ko'p vaqt sarflanishi bilan uning samarasizligini aniqlagan. Natijada elektron hujjat aylanish tizimining joriy qilinishini tabiiy zarurat sifatida tariflagan. Hamda elektron hujjat aylanishiga bu – korxonada elektron hujjatlari bilan ishlaydigan yagona mexanizm va qog'ozsiz ishlash jarayonini joriy qilish deb ta'rif bergan.

Stolbovning (2007) fikricha elektron hujjat aylanishi – bu me'yoriy–huquqiy hujjatlar, standartlar asosida elektron hujjatlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, qabul qilish va yuborish. Shuningdek, ularni aloqa tarmoqlari orqali ishonchli va xavfsiz yuborilishini ta'minlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi.


Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (Kapop, 2019)ga muvofiq elektron hujjat aylanish tizimi ishtirokchilari quyidagi rasmda keltirilgan sxema asosida faoliyatlarini boshlaganlar. Bu tizimlash jarayonida Rouming operatori va elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari munosabatlari tartibga solingan. Dastlabki tizimda Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasi talablariga muvofiq ma'lumotlarni 10 yil davomida serverlarda xavfsiz saqlanishini kafolatlaydi.

Rouming tizimi yuqoridagi rasmda keltirilgan tartibda va qaror talablariga muvofiq elektron hisobvara-fakturalarni tizim operatorlari tomonidan 5-yil muddatga O'zbekiston

Respublikasi hududida joylashgan serverlarda saqlaydilar. Bu elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari uchun qo‘shimcha xarajat bo‘lgan.




1-rasm. Rouming tizimi joriy qilinganda amalda bo‘lgan mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 522-son qaroriga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-dekabrda 717-sonli qarori bilan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Kiritilgan o‘zgartirishda elektron hujjat aylanish tizimi operatorlari tomonidan ma‘lumotlarni majburiy tartida 5-yil davomida saqlash majburiyati bekor qilindi.

Natijada elektron hujjat aylanish tizimi operatorlarining server qo‘rilmalarini xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlari tejab qolindi. O‘zgarishlar asosida yangi sxema ishlab chiqildi va bu sxema 2-rasmda keltirilgan. Yangi sxemaga muvofiq tizim yangidan ishlab chiqildi va eskisi bilan almashtirildi. Natijada ma‘lumotlar aymashinuvi tezligi ortdi. Yangi rouming tizimiga muvofiq elektron hujjatlar elektron hujjat aylanishi tizimi operatorlarining serverlarida majburiy saqlanishi bekor qilindi va ma‘lumotlarni faqat Soliq qo‘mitasining ma‘lumotlar bazasida saqlash majburiyati qoldi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarning soliq solish bazalari ular tomonidan amalga oshirilgan jami realizatsiyalar hisoblanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i salmog‘i mamlakat byudjetida katta salmoqqa ega shu sababli bu soliqning ma‘muriyatchiligi soliq tizimi organlari uchun muhim ahamiyatga ega.




2-rasm. Soliq hisobotlarini eski tartibda topshirish mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan rasmda qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobotining elektron shaklda, ammo eski tartibda topshirish mexanizmi keltirilgan. Eski mexanizmda soliq to‘lovchilar

o'zlarida mavjud birlamchi hujjatlar asosida hisobotning kirim va chiqim reestrini qo'lda shakllantiradilar.

Kirim va chiqim reestri qo'lda to'ldirish uchun elektron hisobot to'ldirish portalidan shablon yuklab olini hisobvara-q-fakturalar, bojxona yuk deklaratsiyalari, onlayn nazorat kassa mashinalari cheklari va boshqa birlamchi hujjatlar ma'lumotlari qo'lda kiritiladi. Tayyorlangan fayl tegishli oy uchun elektron hisobotga biriktirgan holda topshirilgan va soliq organlari hisobotlarni tekshirib qabul qilganlar.



3-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotini avtomatlashtirish mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i hisobotida xaridlar va sotuvlarni hisobot oyiga tegishli barcha summasi aks ettiriladi. Aylanma summalar elektron hisobvara-q-fakturalar, bojxona yuk deklaratsiyalari va onlayn nazorat kassa mashinalari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Bu ma'lumotlarning barchasi avtomat ravishda hisobotda aks ettiriladi. Avtomatlashtirishning ichki shakllanish sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i davlat byudjetiga tushadigan soliqlarning eng katta salmoqqa ega soliqdir. Bu soliqning avtomatlashtirish jarayoni korxonada tomonidan amalga oshirilgan barcha kirim va chiqim operatsiyalarini o'z ichiga oladi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi kirimdagi qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda realizitsiya bilan ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti yillar davomida takomillashtirilib va avtomatlashtirib kelinmoqda. Soliq hisobotining yillar davomida avtomatlashtirilish dinamikasini 1-jadvalda ko'rish mumkin.

1-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi

Yillar	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y
o'zgarishlar						
QQS hisobotining jami kataklari soni	257	259	211	216	201	213
avtomatlashtirilgan kataklar soni	103	89	90	95	161	177
avtomatlashmagan kataklar soni	154	170	121	121	40	36
Foiz dinamikasi	40,08	34,36	42,65	43,98	80,10	83,09
hisobotning ilovalar soni	9 ta	5 ta	7 ta	8 ta	6 ta	6 ta
hisobotning paket kodi	10005_9	10006_8	10006_14	10006_19	10006_34	10006_36

Manba: qo'shilgan qiymat solig'i elektron hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobotining elektron shakli yillar davomida takomillashib avtomatlashib borganini yuqoridagi jadval ma‘lumotlaridan ko‘rib olishimiz mumkin. Dastlab qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobotida kiritim va chiqim hujjatlari qo‘lda kiritilgan. Bu jarayonlar juda ko‘p vaqt va buxgalteriya hisobi xodimlaridan sinchkovlikni talab qilgan. Kiritim va chiqim hujjatlari soniga qarab hisobotni to‘ldirish va topshirish 2-3 soatdan ikki uch kungacha vaqt olgan. Avtomatlashtirish natijasida bu vaqt ikki- uch minutga qadar qisqardi, bu o‘z navbatida soliq to‘lovchilar uchun juda muhim bo‘lgan vaqtni tejashga olib keladi.

Bundan tashqari soliq tizimi barcha soliqlarni o‘zlari hisoblab berishlari soliq to‘lovchilarning xato qilishlarini oldini oladi va asosiy maqsadga avtomatlashtirishga erishilgan bo‘ladi.

Soliq to‘lovchilar soliq rejimiga ko‘ra aylanmadan ham soliq to‘lovchilarga bo‘linadi. Aylanmadan soliq to‘lovchilar ham barcha tushumdan soliqlarni to‘laydilar va hisobot topshiradilar. Aylanmadan soliq hisobotining davri oylik hisoblanadi va hisobotni har oyda bir marta hisobot oyidan keyingi oyning 15 sanasiga qadar taqdim etadilar.


2-jadval

Aylanmadan olinadigan soliq hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi

Yillar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
o‘zgarishlar						
AOS hisobotining jami kataklari soni	418	258	180	145	161	161
avtomatlashtirilgan kataklar soni	194	123	75	67	110	110
avtomatlashmagan kataklar soni	224	135	105	78	51	51
Foiz dinamikasi	46.41	47.67	41.66	46.20	68.33	68.33
hisobotning ilovalar soni	10 ta	7 ta	6 ta	4 ta	5 ta	5 ta
hisobotning paket kodi	10104_8	10104_19	10104_23	10104_24	10104_28	10104_30

Manba: qo‘shilgan qiymat solig‘i elektron hisoboti asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan jadvalda aylanmadan olinadigan soliq hisobotining avtomatlashtirish dinamikasi aks ettirilgan. Bu ma‘lumotlarda yillar davomida soliq to‘lovchilar tomonidan to‘ldirilishi belgilangan kataklarning kamayishini va avtomat to‘ldiriladigan kataklarning ko‘payishini ko‘rish mumkin.




4-rasm. Aylanmadan olinadigan soliq hisobotini avtomatlashtirish mexanizmi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Aylanmadan olinadigan soliq hisobotining soliqqa tortiladigan bazasi elektron hisobvaraqa-faktura, bojxona yuk deklaratsiyalari va onlayn nazorat kassa mashinalarining chek

ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Bu hisobot ham avtomatlashtirishdan avval ma'lumotlarni qo'lda faylga kiritib keyin hisobotga ilova sifatida yuklangan va bu juda ko'p vaqtni olgan. Hisobotni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish natijasida uni rasmiylashtirish hamda topshirish bir necha daqiqalarda amflga oshiriladigan bo'ldi. Bu o'z navbatida soliq to'lovchilarni vaqtlarini va shu faoliyat bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga olib keladi.


Soliq hisobotlarining avtomatlashtirilishi bilan bir qatorda ularga bog'langan boshqa tizimlarni ham avtomatlashtirish yoki tartibga solish ehtiyoji o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Soliq imtiyozlari ham shulardan biri hisoblanadi. Imtiyozlardan foydalanish tartibga solinmasa ularning samarasi va ular yordamida amalga oshirilishi belgilangan ishlar natija bermaydi. Soliq imtiyozlari soliq elementlaridan biri hisoblanadi va soliq hisobotlarini taqdim qilish jarayonlarida ulardan foydalaniladi.



5-rasm. Soliq imtiyozlaridan foydalanishning eski tartibi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan rasmda eski tartibda imtiyozlardan foydalanish mexanizmi keltirilgan. Eski tartibda imtiyozdan foydalanish ixtiyoriy asosda amalga oshirilgan va foydalanish jarayonini to'g'ri yoki noto'g'riligi soliq to'lovchining mahoratiga hamda soliq organlarining tekshirishiga bog'liq bo'lgan. Imtiyozlar soliq to'lovchilarga tegishli sohani rivojlantirish maqsadida berilgan. Bu imtiyozdan insofli bo'lmagan soliq to'lovchilarning foydalanishlari byudjetga va iqtisodiyotga katta zarar yetkazib, yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi.



6-rasm. Elektron hujjat aylanishni soliq imtiyozlaridan foydalanishning amaldagi tartibi

Manba: muallif tomonidan tayyorlangan.

Eski tartibda imtiyozlardan foydalanish mexanizmi soliq xizmati organlaridan doimiy ravishda topshirilgan hisobotlarni tahlil qilib borish va foydalanilgan imtiyozlarni qonun talablariga mosligini tekshirib turishni talab qilgan. Agar soliq imtiyozlaridan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlansa, bu soliq to'lovchilarga talabnoma yuborib kamchiliklar bartaraf etilgan holda qayta hisobot olish amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan rasmda imtiyozlardan foydalanishning yangi va amaldagi mexanizmi keltirilgan. Amaldagi mexanizmida soliq to'lovchilar foydalanishni xoxlagan imtiyozlarni va tegishli asoslovchi hujjatlarni biriktirgan holda soliq xizmati organlriga shaxsiy kabinet orqali murojaatlar jo'natadilar. Soliq organlari maxsus dasturdan foydalangan holda murojaatchining elektron taqdim qilingan hujjatlari o'rganib chiqib asosli deb topilganlarini qabul iladi yoki rad qiladilar.

Bu yangi tartib soliq to'lovchilarning xato qilishlarini oldini oladi va imtiyozlardan manzilli tartibda foydalanishni yo'lga qo'yadi. Yangi tizim joriy qilinishi bilan 2021 yilda 58 milliard noto'g'ri foydalanilgan imtiyozlar aniqlanib soliq to'lovchilardan qayta hisobotlar olingan. 2022 yilga kelib bu kabi imtiyozlardan noto'g'ri foydalanish holatlari keskin qisqargan. Shuningdek, ayrim imtiyozlardan foydalanish uchun murojaatlarni avtomat qabul qilish tizimlari joriy qilingan bu o'z navbatida soliq xizmati organlari xodimlarining o'z mahoratlari ustida ishlab qo'nikmalarini oshirishga imkon beradi

Qo'shilgan qiymat solig'i avtomatlashtirilishi bilan soliq organlarining ishi ham engillashdi. 2020 yil davomida qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti kirim chiqim hujjatlari birma bir tekshirilganda ya'ni A korxonasi va B korxonasi o'rtasidagi hisobvaraqa-fakturalar ikkala korxonaning hisobotida bir xil raqam va bir xil rekvizitlar bilan ifodalanganini solishtirish uchun bir yilda o'rtacha 1000 nafar xodim band bo'lishi kerak edi. Avtomatlashtirish natijasida hisobotlardagi elektron hujjatlarni hamma kontragent korxonalarda parallel bir xil o'tirishi ta'minlandi. Buning natijasida Soliq tizimining xodimlari boshqa muhim ishlarni bajarishga va ularning sonini kamaytirilishiga olib keldi. Bu o'z navbatida soliq organlari xodimlari bilan soliq to'lovchilarning bevosita muloqotlarini kamaytirib korrupsion holatlarni kamaytirdi.

3-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotlarida qayd etilgan hisobvaraqa fakturalar soni dinamikasi

Yillar va ko'rsatgichlar	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y
QQS hisoboti kiritilgan fakturalar soni	5 067 051	5 252 891	5 755 944	19 180 493	22 470 526

Manba: my.soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i hisoboti avtomatlashtirilgunga qadar o'zida aks ettirilgan hisobvaraqa-fakturalar va ularga tenglashtirilgan hujjatlar soni kam bo'lgan, ammo ularni nazorat qilishning imkoniyati juda kam bo'lgan va nazorat qilish soliq organlarining ko'p vaqtini olgan. Soliq to'lovchilarda xatolik qilish darajasini kamaytiri ularni miqdorini nolga tushurgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i byudjetdagi salmog'iga ko'ra eng katta soliq hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i hisobotida soliq to'lovchilar ikki marta soliq to'lamasliklari uchun hisobga olish mexanizmi joriy qilingan. Bu avtomatlashtirilgan tizim insofli soliq to'lovchilar uchun juda qulay va kam xarajatdir. Ammo ba'zi bir "noinsol" soliq to'lovchilar ham borki ular hisobga olishlari cheklangan hollarda ham soliqlarni hisobga olib davlat byudjetiga va boshqa soliq to'lovchilarga noqulayliklar olib keladilar. Bu kabi noqonuniy hisobga olishni oldini olish albatta avtomatlashtirilgan tizimlar orqali amalga oshiriladi. Har bir qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisiga guvug'noma raqami beriladi va ularning holati avtomatlashtirilgan tizim orqali kuzatib boriladi. Bu avtomatlashtirilgan tizimga 20 ga yaqin me'zonlar kiritilgan, shu

mezonlarga tushgan soliq to'lovchilarning guvohnomalari avtomat vaqtinchpha nafaol holatga o'tkaziladi. Tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi uchun rasmiylashtirilgan hisobvaraqq-fakturalarda qo'shilgan qiymat solig'i guvohnomasi holati avtomat tizim bergan holatda aks ettiriladi. Elektron hisobvaraqq-fakturadagi qo'shilgan qiymat solig'i guvohnoma holatiga qarab qo'shilgan qiymat solig'i hisobotiga mazkur kirimlar avtomat ravishda hisobga olinadigan va himsobga olinmaydiganga ajratiladi. Bu yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda katta samara berib 2021-2022 yillarda 2 trilliondan ortiq summaning noqonuniy hisob olinishi cheklandi va byudjetga tushum ortdi.

Tahlillar natijasida soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish maqsadida qo'llaniladigan yana bir usul bu imtiyozlardan noqonuniy foydalanishdir. Imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari bilan ma'lum bir sohaga beriladi. Ba'zi bir soliq to'lovchilar soliqlarni to'lashdan qochish uchun noqonuniy bo'lsada imtiyozlardan foydalanadilar. Soliq to'lovchilarning imtiyozlardan samarali foydalanishlari uchun soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetlarida interaktiv xizmat sifatida soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun murojaatlar xizmati joriy qilindi. Bu tizim joriy qilinishi bilan qo'shilgan qiymat solig'i hisobotidagi ikkinchi ilova imtiyozlar bo'limi 100% avtomat shakllanishi ta'minlandi va imtiyozlardan 2021-2022-yillarda 70 milliarddan ortiq summada noqonuniy foydalanishlar oldi olindi.

Soliq hisobotlaridan Qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, er soligi va mol-mulk solig'ining avtomatlashuvi hukumat tashkilotlari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini ham raqamlashtirib avtomat ravishda bo'lishini ta'minladi. Bu tashkilotlarga Bojxona qumitasi, Kadasrt agentligi, IT park, Davlat turizmni rivojlantirish qo'itasi, Davlat xizmatlari markazlari va boshqalar. Qo'shilgan qiymat solig'i va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlarini avtomatlashtirishda zarur bo'lgan eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar Bojxona qo'mitasidan, er solig'i va mol-mulk solig'i bilan bog'liq ma'lumotlar Kadastr agentligining ma'lumotlar bazasidan elektron shaklda olinib soliq to'lovchilarga tayyor hisobot taqdim qilinmoqda. Yuqoridagi avtomatlashtirish natijasida davlat korxonalari o'rtasidagi hujjat aylanishi ham to'lligicha elektron shaklga o'tkazildi.

"Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni¹ (PF-76-son, 24.05.2023-y.) qabul qilindi. Farmonga ko'ra, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali raqamli xizmatlar va servislar ko'rsatish hamda ularning natijasini olishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona portal orqali ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish bosqichlari "3 qadam" tamoyili asosida maqbullashtiriladi. 2023-yil 1-dekabr gacha fuqarolar raqamli xizmatlardan mustaqil foydalanishlari uchun davlat xizmatlari markazlarida birinchi bosqichda 14 ta "Raqamli xizmat nuqta"lari tashkil etiladi. 2024-yil 1-yanvargacha raqamli xizmat va servislar, elektron to'lovlar, media resurslar imkoniyatini birlashtirishni nazarda tutuvchi Yagona portal orqali xizmatlarni taqdim etishning yangi dasturiy ta'minot shakli joriy etiladi. 2023-yil 1-sentabrdan ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari "edo.ijro.uz" tizimiga o'tkaziladi. 2024-yil 1-maydan ijro etuvchi hokimiyatning hududiy bo'linmalari va ular tasarrufidagi tashkilotlar "edo.ijro.uz" tizimiga to'liq o'tkaziladi. 2023-yil 1-avgustdan davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablag'larning 50 foizi kelgusi moliya yilida mazkur davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, 2023 yilda mobil internet foydalanuvchilari sonini oshirish choralari ko'riladi. Bunda ular sonini 31,5 mln nafarga etkazish nazarda tutilgan (Farmon, 2023).

Bugungi kunda soliq to'lovchilarning xo'jalik faoliyatiga davlat organlarining, xususan soliq organlarining aralashuvi keskin qisqartirildi. Bu kabi o'zgarishlarni albatta avtomatlashtirilgan raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Soliq to'lovchilarni xo'jalik faoliyati tekshirilishi uchun nomzodlar dastlab ularning torshirgan hisobotlari,

¹ <https://old.lex.uz/docs/6472528>

rasmiylashtirilgan birlamchi hujjatlari, turli vazirlik va idoralardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilgan holda 400 dan ortiq kriteriyalarga tayangan holda aniqlanadi. Dastlab soliq to'lovchiga kamchiliklar ko'rsatilgan holda ularni bartaraf qilish yuzasidan ogohlantirish yuboriladi o'n kun muddat bergan holda. Shunda ham soliq to'lovchi ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilmasa, undan keyin tekshiruv tayinlanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda elektron hisobvaraқ-faktura tizimi joriy qilinishi bilan biznesning saffoflik darajasi ortganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari yuqori likvidli tovatlar bo'yicha elektron hisobvaraқ-fakturalarni rad etish muddati kamaytirilgan natijada bu sohadagi yashirin iqtisodoyitni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bizning mamlakatda ham pandemiya davriga kelib elektron hujjat aylanish tizimidan foydalanish darajasi keskin ortdi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi soliq to'lovchilarning sonini ortishi va ularni tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish zarurligi yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Agar shu tartibda avtomatlashtirilmasa soliq to'lovchilar tomonidan hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi faqat tekshirish jarayonida aniqlangandan keyin byudjetga undirilishi ta'minlanadi, ammo avtomatlashtirish natijasida bir summani ikki marta hisobga olinishi cheklanadi.

Adabiyotlar:

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (PF-76-son, 24.05.2023 y.)

Бисултанов Амир Нажмудиевич (2019) Развитие методико-инструментальной базы налогового администрирования условиях цифровизации экономики, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Владикавказ, - 26 с.

Жарков А.А. (2014) Система электронного документооборота/ А.А. Жарков// Наука, техника и образование. №3(3).- 65-71 бетлар.

Кортиков Федор Сергеевич (2013) Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, -19 с.

Кукарина Юлия Михайловна (2004) Формирование и развитие понятия "электронный документ" в зарубежном и Российском законодательстве, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук, Москва, -32.с.

Қарор (2019) www.lex.uz.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 25 июндаги "Ўзаро ҳисоб-китоблар тизимида электрон шаклдаги ҳисобварақ-фактуралардан фойдаланишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" 522-сон Қарори

Столбов А.П. (2007) Организаци электронного документооборота в здравоохранении/ Столбов А.П.// Врач и информационные технологии. -№5-33-39 бетлар

Черватюк Василий Демянович (2020) Модел и алгоритмы хранилища данных электронного архива технической документаи и электронного документооборота научно-производственной организаци, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, -20 с.

Шрэйтэр К.О. (2015) Электронный документооборот: возможности и преимущества. /К.О.Шрэйтэр// Молодой ученый. -№2.-с.52-55